



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
Qaraev Anvar Botirovich	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI	115
G'afurov Sherzod Abdvaxob o'g'li	
O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARNING AHAMIYATI	120
Usmanova Zumrad Islamovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODELİ VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI	162
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	171
Jalalova Dildora Jamolovna	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	174
Лана Цхай	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI	181
G'oziyeva Moxira Rustam qizi	



TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	189
Yuldashova Yoqutoy	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	193
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI	199
Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT	210
Xolmurodova Durdona Otamurod qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	218
Саттарова Зухра Илхомовна	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI	224
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	229
Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL	235
Hasan Ibragimov Mannonov Shahzod Toshmurod Qulmanov	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	242
Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi	
IJTIMOIIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	247
Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich Ibragimov Qayumbek Ikromovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	254
Muminov Bekzod Polvonovich	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Abdulatifova Moxinur Alisher qizi	
FIZIKA FANINI SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ASOSIDA SAMARALI O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	275
Razzoqov I.D.	
RAQAMLI MEHNAT BOZORLARI VA IQTISODIY BARQARORLIK: O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL	281
Safarova Gulruh Akmal qizi	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КАТЕГОРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И НАУЧНЫЙ	



ПОДХОД К ЕЁ ОПРЕДЕЛЕНИЮ.....	287
Зайналов Ж. Р.	
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI.....	293
Xolmatova Mumtozbeqim Alisherxon qizi	
TURISTIK BOZOR KONYUNKTURASINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	298
Usmanova Zumrad Islamovna	
PREPARATION OF NUT JAM USING MULBERRY SYRUP BASED ON ITS CONSUMER PROPERTIES.....	302
Pardaev Gayrat Yakhshibaevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MEROS OBYEKTLARINING TURISTIK SIG‘IM IMKONIYATLARI.....	306
Tolibova Shaxrizoda	
КОМПЛЕКСНЫЙ НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОТЧЕТ: ТРАНСФОРМАЦИЯ, ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРАХОВОГО РЫНКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	314
Махмудов Комолиддин Розметович	
SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN DEVELOPING COUNTRIES: THE SYNERGY OF INVESTMENT, AGRICULTURAL TRANSFORMATION, AND ENVIRONMENTAL POLICY.....	319
Kholmukhamedova Feruza	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	324
Mir Axmadova Mariyam Nosir Axmadovna	
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛИКВИДНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РУСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	330
Бауетдинов Мажит Жанызакович	
Жанызакова Шахноза Мажит кызы	
FEATURES AND WAYS OF FURTHER DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY.....	338
Kobilov Alisher	
Majidova Irodahon	
RAQAMLI UNIVERSITET MODELI — BARQAROR OLIY TA‘LIMNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	346
Nazirova Komola Raximjon qizi	
HUDUD EKSPORTINING XOM ASHYOGA BOG‘LIQLIGI: MOLIYAVIY OQIBATLAR VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	352
Norturayev Mansurbek Obid o‘g‘li	
MOLIYA BOZORINING IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	359
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Miryunusov Avaz Iqboljon o‘g‘li	
ECONOMIC FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	363
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
KORXONA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	368
Shodmanov Toshtemir Ro‘ziyevich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BOZOR MEKANIZMLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI.....	372
Amonova Nazokat O‘tkurovna	



ЭКОНОМИКА АВТОМАТИЗАЦИИ КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ СТРУКТУРУ ЗАТРАТ И БИЗНЕС-МОДЕЛИ	378
Ли Д.Э.	
KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIGA TATBIQ ETISH YO'NALISHLARI.....	382
Bozorov Jasurbek Panji o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	387
Tashxodjayev Abdurasul Abdilmansurovich	



KICHIK BIZNES KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Tashxodjayev Abdurasul Abdulmansurovich

ATB "Universal bank"

Back-office bo'limi bosh mutaxassisi

E-mail: rasulxon89@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes korxonalarida aylanma mablag'larni boshqarishning nazariy asoslari, amaliy muammolari va takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotning bosh maqsadi cheklangan moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan kichik korxonalarda joriy aktivlar bilan qisqa muddatli majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi ustuvor chora-tadbirlarni asoslashdan iborat. Ish davomida pul mablag'lari aylanish sikli (CCC), likvidlik koeffitsiyentlari hamda aylanma mablag'larni moliyalashtirish siyosatlari qiyosiy o'rganildi. Shartli korxonada misolidagi hisob-kitoblar zaxiralar va debitorlik qarzdorligining asossiz o'sishi pul aylanish siklini uzaytirib, korxonada daromadlilikini pasaytirishini ko'rsatdi. Olingan natijalar asosida zaxiralarni optimallashtirish, debitorlik qarzdorligini nazorat qilish, pul oqimlarini rejalashtirish va boshqaruvni raqamlashtirishni qamrab oluvchi oltita ustuvor yo'nalish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: aylanma mablag'lar, kichik biznes, pul mablag'lari aylanish sikli, likvidlik, debitorlik qarzdorligi, tovar-moddiy zaxiralar, moliyaviy barqarorlik, daromadlilik.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические основы, практические проблемы и направления совершенствования управления оборотными средствами на предприятиях малого бизнеса. Основная цель исследования заключается в обосновании приоритетных мер, обеспечивающих баланс между текущими активами и краткосрочными обязательствами на малых предприятиях с ограниченными финансовыми возможностями. В ходе работы были сравнительно изучены цикл обращения денежных средств (CCC), коэффициенты ликвидности, а также политика финансирования оборотных средств. Расчёты на примере условного предприятия показали, что необоснованный рост запасов и дебиторской задолженности удлиняет цикл обращения денежных средств и снижает доходность предприятия. На основе полученных результатов предложены шесть приоритетных направлений, охватывающих оптимизацию запасов, контроль дебиторской задолженности, планирование денежных потоков и цифровизацию управления.

Ключевые слова: оборотные средства, малый бизнес, цикл обращения денежных средств, ликвидность, дебиторская задолженность, товарно-материальные запасы, финансовая устойчивость, доходность.

Abstract. The article analyzes the theoretical foundations, practical problems, and areas for improving working capital management in small business enterprises. The main purpose of the study is to substantiate priority measures aimed at ensuring a balance between current assets and short-term liabilities in small enterprises with limited financial resources. The study comparatively examines the cash conversion cycle (CCC), liquidity ratios, and working capital financing policies. Calculations based on a hypothetical enterprise show that the unjustified growth of inventories and accounts receivable extends the cash conversion cycle and reduces enterprise profitability. Based on the results obtained, six priority areas are proposed, covering inventory optimization, accounts receivable control, cash flow planning, and the digitalization of management.

Keywords: working capital, small business, cash conversion cycle, liquidity, accounts receivable, inventories, financial stability, profitability.

KIRISH

So'nggi o'n yil mobaynida O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tutgan o'rin tubdan o'zgardi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mazkur sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qariyb 31 foizdan 52 foizdan ziyodga ko'tarilgan, iqtisodiyotda band aholining deyarli to'rt dan uch qismi aynan shu sohada mehnat qilmoqda [2]. 2023-yilda joriy etilgan yangi tasnifga binoan tadbirkorlik subyektlari xodimlar soni yoxud



yillik aylanma mablag'i mezoni bo'yicha kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratildi; bunda subyekt mezonlardan birortasiga javob bersa kifoya [1]. Faqat 2025-yilning to'qqiz oyida 62 mingdan ortiq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar ro'yxatga olingani [2] sohadagi yuksak tadbirkorlik faolligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, kichik korxonalar faoliyati hamisha o'ziga xos moliyaviy zaiflik bilan kechadi. Yirik kompaniyalardan farqli o'laroq, ular kapital bozoriga deyarli chiqa olmaydi, uzoq muddatli va arzon manbalardan foydalanish imkoniyati tor, o'z mablag'lari esa, qoida tariqasida, yetishmaydi. Oqibatda bunday korxonalarning to'lov qobiliyati hamda kundalik hayotiyliги bevosita aylanma mablag'larning holatiga bog'lanib qoladi. Aynan shu bois moliyaviy menejmentning klassik dilemmasi — likvidlik bilan daromadlilik o'rtasidagi murosa [4] — kichik biznesda alohida keskinlik kasb etadi: ortiqcha zaxira va bo'sh turgan pul barqarorlikni mustahkamlasada, foyda darajasining pasayishiga olib keladi; haddan tashqari tejamkorlik esa kassa uzilishlariga olib keladi.

O'zbekiston amaliyotida ko'pgina kichik korxonalar aylanma mablag'larni hanuzgacha tizimli tarzda emas, balki sezgi va tajriba asosida boshqaradi. Buxgalteriya hisobi asosan soliq maqsadlariga bo'syundirilgan, boshqaruv hisobi va pul oqimlarini rejalashtirish esa aksariyat hollarda umuman yo'lga qo'yilmagan. Natijada omborlarda harakatsiz tovar to'planadi, xaridorlardan o'z vaqtida undirilgan qarzlarni ko'payadi, korxonalar hisobotda foydali ko'ringan bo'lsa-da, amaliyotda likvidlik tanqisligiga duch kelishi mumkin. Mana shu vaziyat aylanma mablag'larni boshqarishning ilmiy asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Maqolaning maqsadi — kichik biznes korxonalarida aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash. Shu maqsad sari quyidagi vazifalar belgilandi: boshqarishning nazariy-uslubiy negizini umumlashtirish; samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari tizimini aniqlash; shartli korxonalar misolida tahlil o'tkazib, muammoli nuqtalarni topish hamda olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar tayyorlash. Tadqiqot IMRAD tuzilishiga muvofiq qurilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aylanma mablag'larni boshqarish masalasi moliyaviy menejmentning eng qadimiy va ayni paytda eng munozarali yo'nalishlaridan sanaladi. K. Smit hali o'tgan asrning saksoninchi yillaridayoq likvidlik bilan rentabellik orasida teskari bog'liqlik mavjudligini, ya'ni yuqori likvidlikni saqlash ko'pincha foyda darajasi hisobidan ta'minlanishini asoslab bergan edi [4]. Richards va Laughlin esa tahlil amaliyotiga pul mablag'lari aylanish siklini olib kirib, statik balans nisbatlaridan dinamik yondashuvga o'tishni ilmiy jihatdan asosladi [3]. Keyinroq Shin va Soenen "sof savdo sikli" tushunchasini taklif qilib, uning korxonalar samaradorligi bilan mustahkam aloqasini empirik dalilladi [6].


Shu bilan birga, barcha tadqiqotchilar bir xil fikrda emas. Joze va hammualiflari "siqilgan", ya'ni agressiv aylanma mablag' siyosati foydani oshirishi mumkinligini ko'rsatsa [11], Gill va uning hamkasblari Qo'shma Shtatlar kompaniyalari misolida bu bog'liqlik tarmoq va korxonalar xususiyatlariga qarab tovlanishini ta'kidlaydi [10]. Banos-Kabalyero hamda hamkasblari mazkur bahsga muhim aniqlik kiritdi: ular aylanma mablag' darajasi bilan rentabellik orasida "teskari U" shaklidagi bog'liqlik borligini, demak, siklni cheksiz qisqartirish emas, balki maqbul nuqtani topish kerakligini isbotladi [9]. Bu xulosa, ayniqsa, moliyaviy cheklolarga duch keladigan kichik korxonalar uchun strategik qimmatga ega.

Mavjud adabiyotning salmoqli qismi rivojlangan yoxud yirik bozorlardagi ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga bag'ishlangan. O'tish iqtisodiyoti sharoitidagi, xususan, O'zbekistondagi kichik korxonalarning o'ziga xosligi — sezilarli inflyatsiya, qimmat kredit resurslari, naqd pulga moyillik va boshqaruv hisobining zaifligi — hanuz yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu maqola ana shu ilmiy bo'shliqni qisman to'ldirishga, jahon tajribasida sinovdan o'tgan yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslab, amaliy yo'nalishlar tarzida taklif etishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat va miqdoriy usullarning uyg'unligiga asoslanadi. Avvalo, ilmiy adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarni qiyosiy o'rganish orqali aylanma mablag'larni boshqarishning nazariy negizi umumlashtirildi. So'ng masalani aniqroq tasavvur etish maqsadida shartli kichik savdo korxonasining ikki yillik moliyaviy ko'rsatkichlari asosida hisob-kitob tahlili o'tkazildi. Dastlabki ma'lumot manbai sifatida Milliy statistika qo'mitasining ochiq materiallari [2] va nufuzli xalqaro tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi.

Aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligi to'rt guruh ko'rsatkich orqali baholandi: likvidlik koeffitsiyentlari, aylanish ko'rsatkichlari, sof aylanma mablag' miqdori hamda pul mablag'lari aylanish sikli. Markaziy o'lchov bo'lib pul aylanish sikli (CCC) xizmat qiladi; u zaxiralar aylanish davri (DIO), debitorlik qarzi aylanish davri (DSO) va kreditorlik qarzi aylanish davri (DPO) orqali quyidagicha aniqlanadi: $CCC = DIO + DSO - DPO$ [3]. Mazkur siklning mohiyati 1-rasmda — operatsion va moliyaviy sikllarning o'zaro nisbati ko'rinishida — keltirilgan.



1-rasm. Operatsion va moliyaviy (pul aylanish) siklning o'zaro bog'liqligi¹

1-rasmdan ko'rinadiki, operatsion sikl tovar (xomashyo) sotib olingan paytdan to xaridordan pul kelib tushgan daqiqagacha bo'lgan davrni — DIO bilan DSO yig'indisini — qamrab oladi; moliyaviy sikl esa undan kreditorlarga to'lov muddatini (DPO) ayirib tashlagan qismga, ya'ni korxonaning amalda o'z mablag'ini band qilib turish davriga teng. Shu bois CCC qancha qisqa bo'lsa, korxonaga kapitalini shuncha tejamli ishlatadi.

Tahlilda qo'llangan asosiy ko'rsatkichlar, ularning hisoblanish usuli va iqtisodiy mazmuni 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval.

Aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkich	Hisoblanish usuli	Iqtisodiy mazmuni
Joriy likvidlik	Aylanma aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	Qarzni aylanma aktivlar bilan qoplash darajasi
Tezkor likvidlik	(Aylanma aktivlar – zaxiralar) / Qisqa muddatli majburiyatlar	Eng likvid aktivlar bilan to'lov qobiliyati
Mutlaq likvidlik	Pul mablag'lari / Qisqa muddatli majburiyatlar	Darhol to'lash imkoniyati
Sof aylanma mablag' (NWC)	Aylanma aktivlar – Qisqa muddatli majburiyatlar	O'z manbalari bilan moliyalanuvchi qism
Aylanma aktivlar aylanmasi	Sof tushum / O'rtacha aylanma aktivlar	Aktivlardan foydalanish jadalligi
Pul aylanish sikli (CCC)	DIO + DSO – DPO	Mablag'ning band turish davri (kun)

Bundan tashqari, aylanma mablag'larni moliyalashtirishning uchta klassik modeli — agressiv, mo'tadil (uyg'unlashtirilgan) va konservativ siyosatlar — qiyosiy tahlil doirasiga kiritildi [12; 13]. Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, hisob-kitoblar shartli ma'lumotlarga tayanadi; ularning maqsadi muayyan korxonaning faoliyatini baholash emas, balki metodikani ko'rsatish va umumiy qonuniyatlarni yoritishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shartli "Sharq Savdo" MChJ misolidagi tahlil aylanma aktivlarning hajmi bilan birga tarkibi ham sezilarli o'zgarganini ko'rsatdi (2-jadval). Ikki yil ichida jami aylanma aktivlar 24 foizga oshgan bo'lsa, debitorlik qarzdorligi qariyb 29 foizga ko'tarilib, eng jadal o'sgan modda bo'lib chiqdi. Tovar-moddiy zaxiralar esa umumiy hajmning deyarli yarmini (48,7 foiz) egallab, mablag'larning kam harakatchan qismi bo'lib qolaverdi.

¹ Manba: muallif hisob-kitobi asosida.

² Manba: muallif hisob-kitobi asosida.




2-jadval.

Shartli korxonaga aylanma aktivlari tarkibi va dinamikasi, mln so'm³

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	O'zgarish, %	Tarkibi 2024, %
Tovar-moddiy zaxiralar	1 240	1 510	+21,8	48,7
Debitorlik qarzdorligi	760	980	+28,9	31,6
Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	90	120	+33,3	3,9
Pul mablag'lari	410	490	+19,5	15,8
Jami aylanma aktivlar	2 500	3 100	+24,0	100,0

Komponentlar dinamikasining ko'rgazmali tasviri 2-rasmda berilgan: zaxiralar barcha yillarda ustun mavqeni saqlab qoladi, debitorlik qarzdorligi esa eng tik o'sish chizig'iga ega.

2-rasm. Aylanma aktivlar tarkibining 2023–2024-yillardagi dinamikasi (mln so'm)⁴

Aylanish ko'rsatkichlari tahlili salbiy dinamikani ko'rsatdi. 3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, zaxiralar aylanish davri 84 kundan 92 kunga, debitorlik qarzi aylanish davri esa 46 kundan 58 kunga cho'zildi; kreditorlik qarzini to'lash muddati deyarli o'zgarmadi. Natijada pul mablag'lari aylanish sikli bir yil ichida 91 kundan 109 kunga, ya'ni 18 kunga uzaydi. Boshqacha aytganda, korxonaga o'z mablag'ini avvalgidan qariyb uch hafta uzoqroq muddatga muzlatib qo'ya boshladi, bu esa qo'shimcha moliyalashtirish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

3-jadval.

Pul mablag'lari aylanish sikli (CCC) hisob-kitobi, kun⁵


Ko'rsatkich	Hisoblanish formulasi	2023-y.	2024-y.
Zaxiralar aylanish davri (DIO)	$(\text{O'rtacha zaxira} / \text{Tannarx}) \times 365$	84	92
Debitorlik aylanish davri (DSO)	$(\text{O'rtacha debitorlik} / \text{Tushum}) \times 365$	46	58
Kreditorlik aylanish davri (DPO)	$(\text{O'rtacha kreditorlik} / \text{Tannarx}) \times 365$	39	41
Pul aylanish sikli (CCC)	$\text{DIO} + \text{DSO} - \text{DPO}$	91	109

Siklning uzayishi va uning tarkibiy qismlaridagi o'zgarish 3-rasmda aks ettirilgan. Diagrammada DIO va DSO ustunlarining sezilarli o'sishi, DPOning esa deyarli barqaror qolishi yaqqol ko'rinadi — aynan shu nomutanosiblik siklning kengayishiga sabab bo'lgan.

3 Manba: muallif hisob-kitobi asosida.

4 Manba: muallif hisob-kitobi asosida.

5 Manba: muallif hisob-kitobi asosida.



3-rasm. Pul mablag'larini aylanish sikli komponentlarining o'zgarishi (kun)⁶

Likvidlik ko'rsatkichlari ham xuddi shu yo'nalishni tasdiqladi (4-jadval). Joriy likvidlik koeffitsiyenti 1,62 dan 1,48 ga, tezkor likvidlik 0,82 dan 0,76 ga pasaydi; har ikkisi tavsiya etilgan oraliqning quyi chegarasiga yaqinlashdi. Sof aylanma mablag' miqdori musbatligicha qolgan bo'lsa-da, aylanma aktivlar aylanma koeffitsiyentining 2,41 dan 1,99 ga tushishi korxonaga har bir so'm aylanma aktivdan kamroq tushum olish boshlaganidan dalolat beradi. Bu holat aynan Garcia-Teruel va Martinez-Solano [7] hamda Deloof [5] aniqlagan qonuniyatga muvofiq keladi: pul aylanish siklining uzayishi rentabellikni pasaytiradi.

4-jadval.

Likvidlik va aylanma mablag' koeffitsiyentlari⁷

Koeffitsient	Hisoblanish usuli	2023-y.	2024-y.	Tavsiya
Joriy likvidlik	Aylanma aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	1,62	1,48	1,5–2,0
Tezkor likvidlik	(Aylanma aktivlar – zaxiralar) / QMM	0,82	0,76	0,7–1,0
Mutlaq likvidlik	Pul mablag'larini / QMM	0,27	0,23	0,2–0,3
Sof aylanma mablag', mln so'm	Aylanma aktivlar – QMM	957	1 005	musbat
Aylanma aktivlar aylanmasi	Tushum / O'rtacha aylanma aktivlar	2,41	1,99	yuqori

Aylanma mablag'larni moliyalashtirish siyosatlarini qiyoslash kichik korxonaga uchun maqbul yondashuvni tanlashda yo'l ko'rsatadi (4-jadval). Agressiv siyosat foiz xarajatini kamaytirsa-da, to'lov layoqatsizligi xavfini keskin oshiradi; konservativ siyosat esa barqarorlikni ta'minlaydi, biroq kapitalning samarasiz band qilinishi hisobiga rentabellikni pasaytirishi mumkin. Cheklangan resurs va beqaror tushumga ega kichik korxonalar uchun ko'pincha mo'tadil — doimiy aktivlarni uzoq muddatli, vaqtinchalik ehtiyojni qisqa muddatli manbalar bilan moslashtiruvchi — siyosat eng oqilona tanlov bo'lib chiqadi [12; 13].

⁶ Manba: muallif hisob-kitobi asosida.

⁷ Manba: muallif hisob-kitobi asosida.



4-rasm. Aylanma mablag'larni samarali boshqarishning ustuvor yo'nalishlari⁸

5-jadval. Aylanma mablag'larni moliyalashtirish siyosatlarining qiyosiy tahlili⁹

Mezon	Agressiv siyosat	Mo'tadil siyosat	Konservativ siyosat
Doimiy aktivlarni moliyalash manbai	Qisman qisqa muddatli qarz	Asosan uzoq muddatli manbalar	To'liq uzoq muddatli manbalar
Likvidlik darajasi	Past	O'rtacha	Yuqori
Foiz (moliyaviy) xarajat	Past	O'rtacha	Yuqori
Daromadlilik salohiyati	Yuqori	O'rtacha	Past
To'lov layoqatsizligi xavfi	Yuqori	O'rtacha	Past
Kichik korxonalar uchun moslik	Cheklangan	Tavsiya etiladi	Ortiqcha xarajatli

Tahlil natijalari aylanma mablag'larni boshqarishdagi muammolar o'zaro zanjirli bog'langanini ko'rsatadi. Zaxiralarning haddan ortiq to'planishi va xaridorlarga yetarli nazorat qilinmagan tovar kreditini berilishi avval operatsion siklni, so'ng pul aylanish siklini uzaytiradi; bu esa likvidlikni pasaytirib, qo'shimcha qarz olishga undaydi va oxir-oqibat rentabellikni pasaytiradi. Olingan xulosalar jahon adabiyotidagi yetakchi yo'nalish bilan uyg'un: pul aylanish sikli bilan rentabellik orasida teskari bog'liqlik mavjud [5; 7; 8]. Ayni paytda Banos-Kabalyero va hamkasblarining ogohlantirishini [9] ham yoddan chiqarmaslik lozim — maqsad siklni haddan tashqari qisqartirish emas, balki har bir korxonalar uchun maqbul darajani aniqlash, zero zaxiralarning haddan tashqari qisqartirilishi sotuvni yo'qotish va yetkazib berish uzilishi xavfini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, kichik biznes korxonalarida aylanma mablag'larni samarali boshqarishning o'zaro bog'liq oltita ustuvor yo'nalishini ajratish mumkin. Ularning umumiy mantig'i 4-rasmda sxematik tarzda ifodalangan, har bir yo'nalishning mazmuni va kutilayotgan iqtisodiy samarasi esa 6-jadvalda umumlashtirilgan.

⁸ Manba: muallif hisob-kitobi asosida.

⁹ Manba: muallif hisob-kitobi asosida.



6-jadval.

Ustuvor yo'nalishlar va ularning kutilayotgan iqtisodiy samarasi¹⁰

Yo'nalish	Asosiy chora-tadbirlar	Ta'sir ko'rsatkichi	Kutilayotgan natija
Zaxiralarni optimallashtirish	ABC/XYZ tahlili, EOQ modeli, JIT unsurlari	DIO, zaxira aylanmasi	DIO ni 8–12 kunga qisqartirish
Debitorlikni boshqarish	Kredit siyosati, skoring, skonto, faktoring	DSO	DSO ni 10–15 kunga qisqartirish
Kreditorlikdan oqilona foydalanish	To'lov muddatlarini yetkazib beruvchi bilan kelishish	DPO	DPO ni 5–8 kunga uzaytirish
Pul oqimini rejalashtirish	Pul byudjeti, kassa rejasi, qisqa muddatli qo'yilma	Mutlaq likvidlik, CCC	Kassa uzilishini bartaraf etish
Moliyalashtirishni diversifikatsiyalash	Imtiyozli kredit, lizing, savdo krediti	Moliyaviy barqarorlik	Foiz yukini kamaytirish
Boshqaruvni raqamlashtirish	ERP, onlayn-kassa, boshqaruv hisobi	Barcha ko'rsatkichlar	Operatsion samaradorlik o'sishi

Birinchi yo'nalish — tovar-moddiy zaxiralarni optimallashtirish. ABC va XYZ tahlili, iqtisodiy maqbul buyurtma hajmi (EOQ) modeli hamda “aniq vaqtida” (JIT) tamoyilining ayrim unsurlari harakatsiz zaxiralarni kamaytirib, DIO ni qisqartiradi. Ikkinchi yo'nalish debitorlik qarzdorligini boshqarishga qaratiladi: aniq kredit siyosati, xaridorlarni oldindan baholash (skoring), erta to'lov uchun chegirma (skonto) va zarurat tug'ilganda faktoring tushumni tezlashtiradi. Uchinchi yo'nalish — kreditorlik qarzidan oqilona foydalanish, ya'ni yetkazib beruvchilar bilan to'lov muddatini korxonaga manfaatiga moslab kelishish, biroq ishonchni va ta'minot uzluksizligini saqlab qolish. To'rtinchi yo'nalish pul oqimlarini rejalashtirish — pul byudjeti hamda kassa rejasi yuritish, vaqtincha bo'sh mablag'ni qisqa muddatli daromadli vositalarga joylashtirish — orqali kassa uzilishlarining oldini oladi.

Beshinchi yo'nalish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashni nazarda tutadi. Bu o'rinda davlatning kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari muhim resurs vazifasini bajaradi: 2025-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga 120 trillion so'mdan ortiq kredit mablag'i, jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida garovsiz mikrokreditlar ajratilgani [14] aylanma mablag'lar tanqisligini yumshatishga imkon beradi; shuningdek, lizing va savdo krediti ham muqobil manba bo'la oladi. Nihoyat, oltinchi — kesib o'tuvchi — yo'nalish boshqaruvni raqamlashtirishdir. Onlayn-kassa, sodda ERP yechimlari va boshqaruv hisobi tizimlari zaxira, qarzdorlik hamda pul oqimi ustidan deyarli real vaqt rejimida nazorat o'rnatib, qolgan barcha yo'nalishlarning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Mazkur chora-tadbirlar birgalikda qo'llanilganda, hisob-kitoblarimizga ko'ra, pul aylanish siklini 20–30 kunga qisqartirishi va shu hisobdan korxonaga daromadlilik hamda to'lov qobiliyatini sezilarli yaxshilashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot kichik biznes korxonalarida aylanma mablag'larni boshqarish faqat hisob masalasi emas, balki korxonaga hayotiylikini belgilovchi strategik vazifa ekanini ko'rsatdi. Shartli korxonaga misolidagi tahlil zaxiralari va debitorlik qarzining asossiz o'sishi pul aylanish siklini uzaytirib, likvidlik bilan rentabellikni bir vaqtda pasaytirishini aniq dalilladi. Bu natija jahon empirik tadqiqotlari xulosalariga to'liq mos keladi [5; 7; 8].

Shularga tayanib, quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi. Kichik korxonalar, eng avvalo, boshqaruv hisobini yo'lga qo'yib, asosiy ko'rsatkichlarni — pul aylanish siklini, likvidlik hamda aylanish koeffitsiyentlarini — muntazam kuzatib borishi lozim. Zaxiralarni ABC/XYZ va EOQ usullari yordamida optimallashtirish, xaridorlar uchun aniq kredit siyosati va chegirma tizimini joriy etish, yetkazib beruvchilar bilan to'lov muddatlarini puxta kelishish va pul byudjetini yuritish — pul aylanish siklini qisqartirishning amaliy vositalaridir. Davlatning imtiyozli kredit va qo'llab-quvvatlash dasturlaridan, lizing imkoniyatlaridan o'rinni foydalanish moliyalashtirish manbalarini kengaytiradi, raqamlashtirish esa ana shu choralarning barchasini bog'lab turuvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har bir korxonaga o'ziga xos maqbul aylanma mablag' darajasini izlashi kerakligini alohida ta'kidlash o'rinni: maqsad ko'rsatkichlarni so'zsiz minimallashtirish emas, balki barqarorlik bilan daromadlilik orasidagi muvozanatni topishdir [9]. Kelgusi izlanishlarda O'zbekistondagi real kichik korxonalarining yirik tanlamasi asosida ushbu qonuniyatlarni ekonometrik usullar yordamida tekshirish, tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda maqbul sikl chegaralarini aniqlash istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

¹⁰ Manba: muallif hisob-kitobi asosida.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son Farmoni "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6379809>

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik to'g'risida ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumot: 2025-yil yanvar–sentabr. – Toshkent: stat.uz, 2025.

Richards V.D., Laughlin E.J. A Cash Conversion Cycle Approach to Liquidity Analysis // *Financial Management*. – 1980. – Vol. 9, No. 1. – P. 32–38.

Smith K.V. Profitability versus Liquidity Tradeoffs in Working Capital Management // *Readings on the Management of Working Capital*. – St. Paul: West Publishing Company, 1980. – P. 549–562.

Deloof M. Does Working Capital Management Affect Profitability of Belgian Firms? // *Journal of Business Finance & Accounting*. – 2003. – Vol. 30, No. 3–4. – P. 573–588.

Shin H.H., Soenen L. Efficiency of Working Capital Management and Corporate Profitability // *Financial Practice and Education*. – 1998. – Vol. 8, No. 2. – P. 37–45.

García-Teruel P.J., Martínez-Solano P. Effects of Working Capital Management on SME Profitability // *International Journal of Managerial Finance*. – 2007. – Vol. 3, No. 2. – P. 164–177.

Yazdanfar D., Öhman P. The Impact of Cash Conversion Cycle on Firm Profitability: An Empirical Study Based on Swedish Data // *International Journal of Managerial Finance*. – 2014. – Vol. 10, No. 4. – P. 442–452.

Baños-Caballero S., García-Teruel P.J., Martínez-Solano P. Working Capital Management, Corporate Performance, and Financial Constraints // *Journal of Business Research*. – 2014. – Vol. 67, No. 3. – P. 332–338.

Gill A., Biger N., Mathur N. The Relationship between Working Capital Management and Profitability: Evidence from the United States // *Business and Economics Journal*. – 2010. – Vol. 2010, No. 10. – P. 1–9.

Jose M.L., Lancaster C., Stevens J.L. Corporate Returns and Cash Conversion Cycles // *Journal of Economics and Finance*. – 1996. – Vol. 20, No. 1. – P. 33–46.

Brigham E.F., Ehrhardt M.C. *Financial Management: Theory & Practice*. 16th ed. – Boston: Cengage Learning, 2020. – 1184 p.

Van Horne J.C., Wachowicz J.M. *Fundamentals of Financial Management*. 13th ed. – Harlow: Pearson Education, 2008. – 760 p.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash haqida // *Gazeta.uz*. – 2025. – 19-mart. – Elektron manba: www.gazeta.uz.

Pandey I.M. *Financial Management*. 11th ed. – New Delhi: Vikas Publishing House, 2015. – 850 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>